ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 3

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 3

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

DEVELOPMENT OF THE ECONOMIC CAPACITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Saypidiniv Ma'mirjon
Senior Lecturer, Department of "Economics" Andijan State Technical Institute, Uzbekistan
Tel:+998935140570
E-mail:saypidinivm@astiedu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatiga oid nazariy qarashlar tahlili keltirilgan. Shuningdek iqtisodiy olimlarning salohiyat, iqtisodiy salohiyat atamalari mohiyati atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Salohiyat, iqtisodiy salohiyat, sanoat korxonalari, korxona iqtisodiy salohiyati, tashkilot salohiyati.

Аннотация. В данной статье представлен анализ теоретических взглядов на экономический потенциал промышленных предприятий. Также подробно рассмотрена сущность терминов потенциал, экономический потенциал экономистов.

Ключевые слова: потенциал, экономический потенциал, промышленные предприятия, экономический потенциал предприятия, потенциал организации.

Abstract. This article presents an analysis of theoretical views on the economic potential of industrial enterprises. Also, the essence of the terms potential, economic potential of economic scientists is comprehensively illuminated.

Keywords: capacity, economic potential, industrial enterprises, economic potential of the enterprise, organizational potential.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Sanoat sohasi yalpi ichki mahsulot shakllanishida, eksport hajmini oshirishda, yangi ish o'rinlari yaratishda va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bois sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy salohiyat tushunchasi korxonaning mavjud moddiy, mehnat, moliyaviy, innovatsion va intellektual resurslaridan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlash qobiliyatini anglatadi. O'zbekistonda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati, avvalo, ishlab chiqarish quvvatlari, texnik-texnologik baza, kadrlar salohiyati hamda boshqaruv tizimining samaradorligi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Raqamli boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. O‘zbekistonning noto‘qima (non-woven) sanoati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Chunki noto‘qima sanoati barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, eksport tushumlarini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, ya’ni aholini ish bilan band qilish, daromadlarini oshirish va pirovardida aholining turmush darajasini yaxshilashning muhim asosi hisoblanadi. Bugungi kunda noto‘qima sanoati nafaqat yuqori o‘sish sur’atlari, barqaror eksport hajmining ortishi, yirik xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiya qilinishi hamda texnik va texnologik jihatdan tubdan yangilanishi bilan ham ajralib turadi. So‘nggi yillarda noto‘qima sanoatida ishlab chiqarish hajmi jadal sur’atlarda oshib bormoqda va uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada ko‘paydi. Biroq, umuman olganda, O‘zbekiston noto‘qima sanoatining mavjud salohiyati va zaxiralari to‘liq darajada ishga solinmayapti. Bu esa noto‘qima korxonalarining zaxiralari va iqtisodiy salohiyatini chuqur ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ma’lumki, bugungi kunga qadar sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati tushunchasi, tarkibiy qismlari va baholash ko‘rsatkichlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq real sektorning rivojlanish xususiyatlarini to‘liq qamrab olgan, shu asosda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tushunish, baholash ko‘rsatkichlari va uni oshirish mexanizmlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab beruvchi tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

Shu bois, bizning fikrimizcha, noto‘qima sanoatining tashkiliy-iqtisodiy mohiyati, tuzilmasi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, noto‘qima korxonalari uchun iqtisodiy salohiyat tushunchasi, uning tuzilmasi va baholash ko‘rsatkichlarini ilmiy jihatdan shakllantirish hamda uning iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jihatlarni aniqlashtirish uchun, avvalo, iqtisodchi olimlarning “salohiyat” va “iqtisodiy salohiyat” tushunchalariga bergan talqinlarini tahlil qilish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. “Salohiyat” tushunchasi lotincha “potentia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, kuch, yashirin imkoniyat degan ma’noni anglatadi. Umumiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan Arkhipov V.M. [1] ushbu tushunchani quyidagicha ta’riflaydi: “salohiyat — bu belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan mavjud vositalar, resurslar va imkoniyatlar yig‘indisidir”. Ushbu ta’rif umumiy tushuncha shakllanishiga asos bo‘lsa-da, salohiyatni shakllantiruvchi omillarning iqtisodiy

ISSN 3030-3907

jihatdan asoslanishi yetarli emas. Korxona darajasida “salohiyat” tushunchasiga Kleiner G.B., Tambovsev V.L. va Kashalov R.M. [2] qiziqarli yondashuvni taklif etgan. Ularning fikricha, muayyan korxonaning salohiyati uning resurslari, holati va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi harakatlarini tavsiflovchi tarkibiy qismlardan iborat. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv iqtisodiy salohiyat mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bera oladi.

Temnova N.K. [3] tomonidan berilgan ta’rif ham e’tiborga loyiqdir. Uning fikricha, salohiyat — bu nafaqat resurslar, balki maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish va natijalarga erishish qobiliyatidir. U shuningdek, salohiyatga sinergetik yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. B. Rayan [4] tashkilot salohiyatini “maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirishning real va potensial imkoniyati” sifatida ta’riflaydi. Bogataya I.N. [5] esa korxona salohiyatiga buxgalteriya nuqtai nazaridan yondashib, uni “korxona aktivlari, ularning shakllanish manbalari va moliyaviy natijalarga olib kelish qobiliyati” deb izohlaydi. Barngols S.B. [6] va Savitskaya G.V. [7] salohiyatni zaxiralar bilan tenglashtirib, uni bir tomondan qo‘shimcha talabni qondirish uchun yaratiladigan moddiy resurslar, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari sifatida talqin qiladilar.

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv to‘qimachilik korxonalarining iqtisodiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning iqtisodiy salohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, “salohiyat” tushunchasi mavjud sharoitlar o‘zgarganda korxonaning yashirin imkoniyatlarini namoyon etadi.

“Iqtisodiy salohiyat” tushunchasining keng talqin qilinishi uni iqtisodiyotning turli sohalariga tatbiq etish imkonini beradi. Shu bois, u iqtisodiy faoliyatning turli yo‘nalishlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur maqolada korxonalarning iqtisodiy salohiyati bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari nazariy va metodologik asos sifatida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruhlash va solishtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy salohiyatga berilgan ta’riflar ikki asosiy yo‘nalishga ajratiladi:

— iqtisodiy salohiyat resurslar yig‘indisi sifatida;

— iqtisodiy salohiyat ma’lum natijalarga erishish qobiliyati sifatida.

Birinchi yondashuv iqtisodiy salohiyatni faqat resurslar nuqtai nazaridan baholaydi, ikkinchisi esa faqat natijalarga e’tibor qaratadi. Bizning fikrimizcha,

ISSN 3030-3907

noto‘qima korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirgan holda tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Kovalev V.V. iqtisodiy salohiyatni korxonaning mavjud moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan foydalangan holda o‘z maqsadlariga erishish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv biz ilgari surayotgan fikrga yaqin hisoblanadi.

Sanoat korxonalari O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy hayotiy bo‘gini hisoblanadi. Ular yalpi ichki mahsulot (YaIM) hosil qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik modernizatsiya va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda asosiy rolni o‘ynaydi. Shu sababli O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar dasturlarini amalga oshirmoqda.

Bu maqola O‘zbekistonning 2022-2025 yillar davridagi strategik islohotlari, ularning sanoat korxonalariga ta’siri, innovatsiyalarni joriy etish, eksport va investitsiyalarni rag‘batlantirish yo‘nalishlarini kompleks tahlil qiladi. Mafkuraviy asosni mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo‘yicha davlat qarorlari, modernizatsiya strategiyalari va ilmiy tahlillar tashkil etadi.

1. Sanoat siyosati va strategik yo‘nalishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi sanoat sohasini modernizatsiya qilishni muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Ushbu strategiya orqali eksport salohiyatini oshirish, qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish, xususiy sektorni kuchaytirish va sanoat korxonalarini raqobatbardosh qilish rejalashtirilgan. Masalan, eksport qiluvchi korxonalar sonini 6 500 tadan 15 000 taga yetkazish va eksport tuzilmasida tayyor mahsulotlar ulushini sezilarli darajada oshirish kabi vazifalar qo‘yilgan

Shuningdek, soliq yuki biznes uchun yengillashtirilmoqda – taxminan 27,5% dan 25% gacha kamaytirish rejalashtirilgan, bu esa korxonalar uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Tashkent Times Shu strategiya doirasida erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari va texnoparklar tashkil etilib, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik uchun sharoitlar kengaytirilmoqda.

2. Industriyal zonalar va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoatni mintaqalarga keng yoyish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish maqsadida ko‘plab sanoat hududlari tashkil qilindi. Jumladan, 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ortiq kichik sanoat zonalari tashkil etildi. Ushbu zonalar infratuzilma bilan ta’minlanib, investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qulay

ISSN 3030-3907

sharoit yaratmoqda. Natijada sanoat zonalarida yillik 45 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish, 100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi kuzatilmoqda.

Hududlarda sanoatning diversifikatsiya qilinishi ham sezilarli darajada amalga oshmoqda. Misol uchun, Jizzax viloyatida qurilish materiallari, avtomobil va oziq-ovqat tarmoqlari yangi tarmoqlar sifatida shakllanmoqda. Samarkand, Sirdaryo va Namangan kabi hududlarda metallni qayta ishlash bo‘yicha 19 ta yirik loyiha amalga oshirdi.

3. Innovatsiya va texnologik modernizatsiya.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston korxonalarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-texnik salohiyatni oshirish bo‘yicha bir qator mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Bu yo‘nalishda avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, “Smart Industry” konsepsiyasi asosida ishlash kabi yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, mahalliy ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda korxonalarda ilm-fan bilan integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

4. Eksport salohiyatini oshirish va xalqaro integratsiya.

O‘zbekiston sanoat korxonalarining eksport salohiyatini kengaytirish yo‘lida aniq chora-tadbirlar amalga oshirmoqda. Prezident strategiyasi eksport qiluvchi kompaniyalar sonini oshirish, yangi bozorlarni ochish va mavjud bozorlarni kengaytirish rejasini belgilaydi. Shu bilan birga, mamlakat GSP+ kabi xalqaro preferensiya tizimlariga qo‘shilishi eksport imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi.

Ushbu mexanizmlar korxonalarga bozor tadqiqotlari o‘tkazish, logistika va marketing sohalarida yordam beradi va ularni dunyo bozorida raqobatbardosh qiladi.

5. Muammolar va cheklovlar.

Shu bilan birga sanoat sohasida hali ham qator muammolar mavjud. Bular — eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, innovatsion salohiyatning pastligi, xomashyo yetishmovchiligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishdagi qiyinchiliklar va ba’zi hududlarda investitsiyalar yetishmasligi kabi masalalardir. Bu muammolarni hal etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

O‘zbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar — bu kompleks, tizimli va strategik yo‘nalishda olib borilayotgan jarayon bo‘lib, ularning maqsadi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, global bozorlar bilan integratsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdir. Hozirgi

ISSN 3030-3907

kunda 19 ta erkin iqtisodiy zona, 400 dan ortiq kichik sanoat zonalari tashkil etilishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha strategiyalar, innovatsiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish korxonalar salohiyatini sezilarli darajada kuchaytirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

— korxonalarning iqtisodiy salohiyati bo‘yicha yagona ilmiy asoslangan ushuncha mavjud emas;

— iqtisodiy salohiyat har bir tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi zarur;

— O‘zbek olimlari tomonidan noto‘qima sanoati iqtisodiy salohiyati yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu asosda, noto‘qima sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati deganda, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan holda mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash hamda bozorda noto‘qima mahsulotlariga bo‘lgan talabni shakllantirish va qondirish qobiliyati tushuniladi.

ADABIYOTLAR

1. Архипов, В. М. Проектирование производственного потенциала объединений (теоретический аспект)/ В. М. Архипов. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1984
2. Клейнер Г. Б., Тамбовцев В. Л., Качалов Р. М. 1997. Предприятие в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. М.: Экономика
3. Темнова М.К. Понятие “Потенциал” как организационно экономическая категория. //№6(269) Технология текстильной промышленности. 2012
4. Райан, Б. Стратегический учет для руководителя / Б.Райан. – Москва: ЮНИТИ, 1998. – 616 с. – ISBN 5-85177-044-9.
5. Богатая И.Н. Стратегический учет собственности предприятия. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001.
6. Барнгольц С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. – М.: Финансы и статистика, 1984 7. Савицкая Г.В. Экономический анализ [Текст]: учебник / Г.В. Савицкая. — 14-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2013.

ISSN 3030-3907